NEMIS TILI DARSLARIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARI VA QIYINCHILIKLARI

Qiyomova Mohinur G'ulomjon qizi
Buxoro tumani Politexnikumi Nemis tili o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning bir qator qulayliklari shu bilan birga muammo va cheklovlarni, o'qituvchi va o'quvchilarga qo'yiladigan talablar, o'quv faoliyatlarini boyituvchi va qo'llab-quvvatlovchi samarali texnologiya sifatida xizmat qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiya, ta'lim, metod, faoliyat, jarayon, dasturiy vosita, salohiyat, kreativlik, kasbiy faoliyat, kompetentlik, kompetensiya, faollik, mahorat.*

So'ngi yillarda Respublikamiz ta'lim tizimida bir qancha islohotlar olib borilmoqda, ta'lim sohasi jadal sur'atlar bilan yangilanib bormoqda. Xususan, sun'iy intellekt bugunning dolzarb masalalari qatoridan o'rin oldi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi xorijiy tillarni qulay o'zlashtirish, jumladan o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuv va imkoniyatlarni olib kirdi. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturlar, ilovalar, videoriliklar, virtual yordamchilar, avtomatlashtirilgan tarjimalar ta'lim oluvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, individual faoliyatni ta'minlash hamda o'quvchilarning mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy tillarni o'rgatishda sun'iy intellektdan foydalanish bir qator qulayliklar shu bilan birga muammolar va cheklovlarni ham yuzaga keltirmoqda. Texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining sustligi, akademik halollik masalalari shuningdek o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi jonli muloqotning kamayishi kabi omillar mazkur jarayonni murakkablashtiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limiy faoliyatda o'rinli joriy etilishi nemis tilini o'qitishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalari o'quvchilarning til bilish darajasi, til o'rganish sur'ati va ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini tahlil qilish va shu asosida moslashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etadi. Bu esa grammatik qoidalar, lug'at boyligini oshirish hamda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda samaradorlikni ta'minlaydi. Masalan, noan'anaviy test tizimlari o'quvchilarning xatolarini aniqlab, aynan shu kamchiliklarga yo'naltirilgan mashqlarni taklif etadi.

Nemis tilida talaffuz va og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida ham sun'iy intellektning ahamiyati katta. Nutqni tanish texnologiyalari yordamida o'quvchilarning talaffuzi tahlil qilinib, fonetik xatolar bo'yicha tezkor va aniq fikr-mulohazalar berib borilib, bo'shliqlar bartaraf etib boriladi. Bu jarayon o'quvchilar uchun muhim bo'lib, ularning nutqiy qobiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, virtual suhbatdoshlar o'quvchilarga real muloqotga yaqin muhitda mashq qilish imkonini yaratadi.

Alohida ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt nemis tili o‘qituvchilarining ta’limiy faoliyatni tashkil etish jarayonini yengillashtirishda muhim vositalarda biri hisoblanadi. Interaktiv dars mshg‘ulotlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, yozma ravishda olib boriladigan ishlarni tezkor tekshirish, o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilish va individual yondashgan holda tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq metodik yondashuvli dars mashg‘ulotlari, ijodiy topshiriqlar va kommunikativ mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

Sun’iy intellektdan foydalanishning qulaylik, engillik tomonlaridan tashqari uning ta’lim jarayonida qator qiyinchiliklari ham mavjud. Eng avvalo, texnologik vositalarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi va internet tarmog‘i bilan bog‘liq muammolar ta’lim jarayonining uzluksizligiga cheklov qo‘yadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilarning sun’iy intellektga asoslangan dasturlar bilan samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan raqamli kompetensiyalarga ega emas, yoki bu borada bilimining yetarli emasligi. Bu kabi holat esa texnologiyalardan noto‘g‘ri yoki cheklangan tarzda foydalanishga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim masala - akademik halollik va mustaqil fikrlashning pasayish ehtimolidir. O‘quvchilarning tarjima dasturlari yoki avtomatik matn yaratuvchi vositalarga haddan tashqari tayanishi ularning tilni chuqur o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, sun’iy intellekt real insoniy muloqot va hissiy jihatlarni to‘liq aks ettira olmasligi sababli, an’anaviy o‘qitish usullarini to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli nemis tilini o‘qitish darslarida sun’iy intellektdan foydalanish o‘rinli, muvozanatli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonini boyituvchi yordamchi sifatida qaralishi zarur deb bilaman.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining nemis tili darslariga maqsadli va o‘rinli joriy etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab individual yondashuvni ta’minlash hamda ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv dasturlari, nutqni tanish tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash vositalari orqali o‘quvchilarning grammatik, leksik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda.

Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida texnologik ta’minot, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi, akademik halollik hamda jonli muloqotning cheklanishi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha aniq metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish hamda an’anaviy va raqamli ta’lim usullarini uyg‘unlashtirish zarur.

Demak, sun’iy intellekt nemis tilini o‘qitishda o‘qituvchini to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki o‘quv faoliyatlarini boyituvchi va qo‘llab-quvvatlovchi samarali texnologiya sifatida xizmat qilishi lozim.

Texnologiyani faoliyatda oqilona va maqsadli qo‘llash orqali zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, raqobatbardosh va til kompetensiyalariga ega mutaxassis kadrlar tayyorlash mumkinligini alohida ta’kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.V.Arxangelskaya. Ravnoznachnые sinonimы nemetskogo yazыka. – Uchyonnые zapiski/ Mosk. gos. ped. in-tut. in. yaz. im. M. Toreza, 1958, t. 16.
2. Yu. D. Apresyan. Problema sinonima. Voprosы yazыkoznaniya.
3. L.R. Zinder, T.V. Stroeva. Posobie po teoreticheskoy grammatike i leksikologii nemetskogo yazыka. M., 1962
4. Ikkinchi chet tilini o‘qitish kontseptsiyasi (ingliz tiliga asoslangan nemis tili). - Tver, sarlavha, 2001 yil.
5. E.A. Migranova, Sh.X. Poziiova Kasbiy pedagogik f'aoiiyatga kirish / O‘quv qo‘llamna. - Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018 y. - 200 bet
6. O‘.J. To‘ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376 bet.
7. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
8. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
9. G.Niyozov, M.E. Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.
10. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
11. Raxmonova S.M. “Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
12. Raxmonova S.M. .“In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching”. Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
13. Raxmonova S.M. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.